



OILADA FARZAND TARBIYASI HAMDA OILAVIY MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK BOSQICHLARI

Taylaqova Saida Lapasovna

Jizzax viloyati Zomin tumani 29-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA : *Oila bu “turli yoshdagi a’zolaridan iborat jamoa”, katta avlod vakillari bolaning rivojlanishiga o’z ta’sirini o’tkazish imkoniyatiga ega. Bobo, buvi va yaqin kattalar hamda oila a’zolarining o’zaro ijobiy munosabatlari bolaning shaxs sifatida shakllanishida juda katta ahamiyat kasb etadi. Oila a’zolarining o’zaro bir-birlari bilan yaxshi munosabatda bo’lishlari ko’proq oiladagi tarbiyaga bog’liq.*

Kalit so’zlar: *avlod, tarbiya, ijtimoiylashuv, oilaviy munosabatlar psixologiyasi, tarbiya, oilaviy ruhiyat, psixik taraqqiyot, barqarorlik*

KIRISH

Oilaviy tarbiya – bu bolaning shaxsiy fazilatlarini, bilimini, ahloq-odobini shakllantirish maqsadida aniq bir maqsadga yo’naltirilgan tarbiyaviy ta’sir o’tkazishdir. Ota-onalar tomonidan bolaning ongiga jamiyatda o’rnatilgan ijtimoiy me’yorlar, ahloq-odob qoidalariga amal qilish asta-sekinlik bilan shakllantirilib boriladi. Oilaviy tarbiyaning uchta muhim, asosiy funksiyalari mavjud va ular quyidagilar:

- 1) Bolaning qiziqishlari va qobiliyatlarini ro’yobga chiqarish, ta’lim-tarbiya berish, oilaviy an’analar, urf-odatlarini kelgusidagi avlodlarga yetkazish, dunyoqarashni shakllantirish, mehnatsevarlikka o’rgatish, vatanparvarlik, o’z vatanini sevish tuyg’ularini shakllantirish, jamiyatdagi ijtimoiy normalarga amal qilish, jismoniy rivojlanishiga ko’maklashish, sanitariya-gigena qoidalariga amal qilish va tibbiy madaniyatni shakllantirish.
- 2) Oila a’zolarining o’zaro bir-birlariga tarbiyaviy ta’sir o’tkazish.



3) O‘z-o‘zini tarbiyalash, ota-ona (oilaning boshqa a‘zolari) ning bolaga doimiy ta’siri.

Agar oila ushbu tarbiyaning asosiy funksiyalariga alohida e’tibor qaratsa, funksiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, oilaning tarbiya borasidagi imkoniyatlari ortib boradi.

Shaxslararo munosabatlarda oiladagi “bola va ota-ona munosabati” juda katta rol o‘ynaydi. Oiladagi o‘zaro ijobiy munosabatlar orqali bola atrofdagi odamlar bilan munosabatlarga kirishishni, muloqot qilishni o‘rganadi.

“Bola-omonat” – ota-onaning bolaga munosabatlari ichida eng keng tarqalgan muhabbat turlaridan biri. Buning zahirida faqat ota-onaning manfaatlari yotadi. Ota-ona farzandni dunyoga keltirib, o‘zining kelajagi uchun tarbiyalab, voyaga yetkazadi. Bolaning xohish-istaklari va qiziqishlarini inobatga olmasdan, o‘z kasbini, faoliyatini davom ettirish uchun katta qiladi. Bu oilada o‘zining xohishlariga undash kuchli bo‘ladi. Ya’ni, “Men senga butun umrimni bag‘ishladim senchi...! ”, “Sen o‘z hayoting va faoliyating davomida ota-onang oldida qarzdorligingni unutmasliging kerak...!” va boshqalar.

“Bola-shaxsiy boylik” – ota-ona tomonidan bolaga nisbatan munosabatlardagi eng xavfli. Ota-ona tomonidan bolaga shaxsiy boylik sifatida qarash. Bu munosabatda ikkita yo‘nalishni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Agar bolaga oilada boshqalar tomonidan mehr-muhabbat ko‘rsatilsa va uning oilada eng yaxshi ko‘radigan insoni (kumiri) bo‘lsa, barcha muammolarni uning yaqinlari, qorindoshlari hal qiladi. Agar oilada oilaviy qadriyatlarga amal qilinmasa, oilada nosog‘lom muhit bo‘lsa, ota-ona tomonidan ichkilikka ruju qo‘yilsa, bola boshqa salbiy ta’sirlarga tushib qoladi. Uydan ketib qolish, daydichilik kabi holatlarga tushib qoladi.



“Bola ortiqcha tashvish” – bolaning ko‘nglini xira qiladigan munosabat turlaridan biri. Bola oilada o‘zini keraksiz, ortiqcha deb his qiladi. Ota-ona doim juda ko‘p vaqtini bolaning tashvishlari va muammolari uchun sarflayotganligini ta’kidlaydi. Juda ko‘p ota-onalar ota-onalik mas’uliyatini his qilmaydi. Ota-onalik mas’uliyatini bobosiga, buvisiga, yaqinlariga yoki bo‘lmasa institutsional muassasalar zimmasiga yuklab qo‘yadi.

“Bola omadsizlik” – bu holat bolani ijtimoiy jihatdan zaif bo‘lishiga olib keladi. Ota-ona farzandining xohish va qiziqishlariga, hissiyotlariga, dunyoqarashi va fikrlashiga jiddiy e’tibor qaratmaydi. Shunchaki, “bola gapiraveradi-da”, deb o‘ylaydi. Bu kabi yondashuv bolaning uquvsiz, omadsiz bo‘lib qolishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ular bolaning kelajakda muvaffaqiyatlarga erishishiga ishonmaydi, bu haqida unga doim “baribir qancha uringaning, harakat qilganing bilan hech narsaga erishaolmaysan, qo‘ygin nima qilasan”, deb uning ishtiyoqini so‘ndiradi. Bunday holatda oilada bola qobiliyatli, omadli bo‘lib voyaga yetmaydi.

“Bola qarzdor” – bunday holatdagi oilada bola yuqori lavozimlarda, hokimiyat idoralarida boshqaruvchi lavozimlarida ishlasa bola oila a’zolari va qorindoshlarining oldida qarzdor deb hisoblanadi. Bunday vaziyat bolaning qahri qattiq, badjahl bo‘lib shakllanishiga olib keladi. Ulardan doim hamma nimadir talab



qiladi. Ota-onaning bolaga bunday munosabati natijasida bolada omadsizlik obrazi shakllanishiga olib kelishi haqida o'ylamaydi. Ota-ona o'zining muammolari bilan band bo'lib, bolaga yetarlicha e'tibor qaratmaydi. Ular bolaning faoliyatiga, berilgan topshiriqlarni bajarishiga va hayotidagi muammolarini hal etishiga yordam bermaydi.

“Bola kumir” – bunday oilada bola yer yuzidagi barcha ne'matlar ichida eng yaxshisi, eng sevimli inson sifatida qaraladi. Bolaga g'amho'rlik qilish, uning tarbiyasiga e'tibor qaratish, bolada o'z-o'ziga baho berish, borliqni ob'yektiv idrok etishni shakllantiradi va o'ziga bo'lgan ishonch ortib boradi. O'rinsiz, keragidan ortiq, maqtoov “dunyoda eng yaxshi, zo'r” degan holatga olib keladi. Natijada bolani doim maqtab tursa, u bir ish qilishi odat bo'lib qoladi.

“Bola - kichik do'st” – oilaviy tarbiyada bola va ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlardagi eng yaxshi vaziyat hisoblanadi. Bu munosabat turi insonparvar va eng ishonchli hisoblanadi. Buning zahirida o'zaro tenghuquqli hamkorlik yotadi. Faqat hayotiy muammolarni hal etishda yoshi katta inson dono, yoshi kichik inson esa unga qaraganda tajribasiz. Ota-ona bolaga alohida hamg'o'rlik qiladi, mehr beradi. Bunday oilada sog'lom muhit yaratiladi. Bunday munosabat bolaning yoshiga va hayotiy tajribasiga qarab o'rnatiladi. Mamlakatimizda oila, oilaviy munosabat, yoshlar tarbiyasi masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Biroq yurtimizda yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishlari uchun hukumatimiz va Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan choratadbirlar hamda bu sohaga berilayotgan katta e'tiborga qaramay, o'smir-yoshlar o'rtasida giyohvandlik, jinoyatchilik, tartibbuzarlik kabi mentalitetimizga, etnik xususiyatlarimizga xos bo'lmagan illatlarning ko'payishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda jahon miqyosida oilaviy munosabatlar, xususan, o'smirlik yoshidagi o'zaro munosabatlar, ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolar va ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish masalalari dolzarb muammolardan sanaladi. Chunki shaxsning shakllanishida oiladagi muhit, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy nizolar oqibatida ro'y berayotgan holatlar,



oilalarning barbod bo'lishi, millatlar, davlatlarning o'zaro kelishmovchiligi yoshlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi.

Oila inson hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan oilaviy munosabatlar va muloqotda inson ehtiyojlari amalga oshiriladi, ya'ni: ma'lum bir guruhga mansublik tuyg'usini beruvchi insoniy aloqalarga bo'lgan ehtiyoj; o'zini-o'zi tasdiqlash zarurati, bu his-tuyg'ular va uning boshqa odamlar uchun ahamiyati haqida haqiqiy dalillar; mehrga bo'lgan ehtiyoj, bu o'zaro iliqlikni his qilish imkonini beradi; shaxsning o'ziga xosligi, individualligi hissini shakllantiradigan o'z-o'zini anglash zarurati; namuna bo'ladigan orientatsiyaga bo'lgan ehtiyoj. Qadim zamonlardan beri odamlar oiladagi munosabatlar, bolalarni tarbiyalash tajribasini to'plashdi va kristallashtirdilar. Ushbu maqolaning maqsadi oilada bola va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar masalasiga asosiy falsafiy va psixologik-pedagogik yondashuvlarni yoritib berishdir. Falsafiy va psixologik adabiyotlarda bola-ota-ona munosabatlarining mazmuni va mazmunini tushunishning bir qator nazariy yondashuvlari shakllangan. Z.Freydning klassik psixoanalizida ota-onalarning bolaning aqliy rivojlanishiga ta'siri markaziy o'rinni egallaydi. Ota-onalar (ayniqsa, ona) - bu bola eng erta va eng muhim erta tajribaga ega bo'lgan odamlardir. Ota-onalarning bolaga g'amxo'rlik qilish haqidagi odatiy kundalik tashvishlari sezilarli psixologik ta'sir ko'rsatadi. Chaqaloqning hayotiy ehtiyojlarini qondirishning to'liqligi va yo'li bog'lanish, ishonch, hayot uchun faollik asosiga aylanadi.

XULOSA

Oila - jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila - bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rasulova F.F. O'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari: Avtoref. diss. ps. fan (PhD): 19.00.06 – T.: 2018. – 48 b.
2. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. – T.: 2005. – 15 b.
3. Umarova M.M. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dis. psixol. fan. nomzodi: 19.00.05. – T.: 2004. – 166 b.
4. Ибайдуллаева У.Р., Абдурасулов Р.У. Methods of overcoming internal conflicts between teenagers. EJRRES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 № 6, 2020, 1-7 бетлар.
5. Ziyo.net